

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR

Kaxxarova Shaxlo Shaydilloyevna

BuxDu ingliz tili o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14759915>

Annotatsiya. Ushbu maqolada A.Qahhor hikoalarining leksik-semantik xususiyatlari haqida bayon etilgan. Abdulla Qahhor asarlari orqali o'zbek tiliga muhabbatni oshirish, adibning asarlarida qo'llagan so'zlarning ma'no va mazmunini tahlil qilib o'quvchilarga o'zbek tili va adabiyotni qiyoslab o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: leksik-semantik, hikoya, rammatika, leksika, lingvokulturologiya, til, madaniyat, adabiyot.

Аннотация. В статье описываются лексико-семантические особенности рассказов А. Каххора. Произведения Абдуллы Каххора играют важную роль в воспитании любви к узбекскому языку, анализе смысла и содержания слов, используемых в произведениях писателя, а также в обучении студентов узбекскому языку и литературе в сравнительно-сопоставительной манере.

Ключевые слова: лексико-семантический, рассказ, грамматика, лексика, лингвокультурология, язык, культура, литература.

Abstract. The article describes the lexical and semantic features of the stories by A. Kahhor. The works of Abdullah Kahhor play an important role in fostering love for the Uzbek language, analyzing the meaning and content of words used in the writer's works, as well as in teaching students the Uzbek language and literature in a comparative manner.

Key words: lexical and semantic, story, grammar, vocabulary, linguocultural studies, language, culture, literature.

Yozuvchilarning til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir.

Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda, ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning okkazional so'z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o'rganiladi-yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari e'tibordan chetda qoldiriladi. Lekin Abdulla Qahhor asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha sathlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi.

Abdulla Qahhorning so'z qo'llash mahorati, bir so'zda turli ma'no ifodalay olishi, millatparvarlik va asarlaridagi badiiy so'z qudrati orqali yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik va ilm olishga rag'bat uyg'otishimiz, bugungi dorilomon kunlarning qadrini teran anglashga undash

mumkin. Ishning dolzarbligi shu va shu kabi jihatlarda namoyon bo'ladi. Abdulla Qahhor asarlari orqali o'zbek tiliga muhabbatni oshirish, adibning asarlarida qo'llagan so'zlarning ma'no va mazmunini tahlil qilib o'quvchilarga o'zbek tili va adabiyotni qiyoslab o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda, ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning okkazional so'z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o'rganiladi-yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari e'tibordan chetda qoldiriladi. Lekin Abdulla Qahhor asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha sathlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi. Abdulla Qahhor asarlarida sinonim so'zlarning qo'llanishi.

Sinonimlar yunoncha synonymos – bir nomli ya'ni bir umumiy ma'noga ega bo'lgan, qo'shimcha ma'no ottenkasi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishdagi xususiyati va shu kabi belgilari bilan farqlanadigan so'zlar. Misol: Behuda gap! Mana mening xotinim nima ekanini o'zim bilaman.

Paranjisini tashlab ikki kun ko'chada yursin-chi! U odamning zardasi qaynab ketdi: — Nega ko'chada yuradi? Ko'chada paranjilik yursa ham ayniydi-da! To'g'risini aytaymi? Paranjilik xotin harom ishga yaqinroq bo'ladi. Sabab deng! Agar siz yuziga kulib qaramasangiz, devorg'a shoti qo'yib ko'chaga mo'ralaydi: ko'ylaklik olib bermasangiz, tom orqasidan ko'ylaklik uzatadigan chiqib qoladi. Ochilgan xotinchi, ko'ylak olib bermasangiz o'zi ishlab, o'zi oladi.

Paranji tashlatmoq, paranji-siz yurishga imkon yoki ruxsat bermoq. Tuxum bosib, undan jo'ja chiqarmoq. Tovuq o'nta jo'ja ochibdi. Musicha bola ochibdi. -Biz yorug' dunyoni ko'rish uchun tug'ilganmiz, Turg'unoy!— dedi Maston. - Biz tovuq emasmizki, qanday tuxum bostirsa, shuni ochib chiqarsak. Yigit hayron edi: Buning husnigina emas, hatto kiygan kiyimi ham mo'jizaku, nega mening otimni biladi, nega yani o'zini past olgan tovush bilan so'raydi?., Yigit avf so'radi: Mening qulog'imga Saidiy bo'lib kiribdi,-- dedi va cho'ntagiga solgan qog'ozlarini yana qo'liga oldi. Abdulla Qahhor o'z asarlarida ko'chma ma'noli so'zlarni mohirlik bilan qo'llay olgan yozuvchilardan. Asarlarini tahlil qilib o'qish jarayonida bir necha o'rinlarda ko'chma ma'noli so'zlarni qo'llaganiga guvoh bo'ldik. Masalan: "Bemor" hikoyasini oladigan bo'lsak matnda tilanchi nutqi ham kiritilib ketgan va ayni paytda u tojik tilida berilgan.

Bizga ma'lumki, hozirgi kunda bizning xalq orasida "lo'li" deb ataluvchi millatning asosiy kasb-kori tilanchilik va ularning aksariyat qismi tojik tilida gaplashadi. Yozuvchi ham aynan shu jihatlarga e'tibor bergan. "Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo..." Shuningdek, yozuvchining har bir hikoyasida iboralar qatnashgan. Bizga ma'lumki, ibora frazeologik birlik hisoblanib bildirayotgan fikrimizni bo'rtirib, ta'sirchanlikni oshirib ifodalashimiz uchun ishlatamiz. Ayni damda iboralar o'zbek tili lug'at tarkibini boyituvchi til birliklaridan biri hamdir.

Abdulla Qahhor asarlari boshqa ijodkorlar asarlaridan tilining aniq, lo'nda ravon, qisqa so'z aytib keng ma'no anglatishi bilan farq qiladi. Bundan tashqari ijodkor asar qahramonlarining yoshi, jinsi, kasb-koriga qarab so'zlar tanlagan. Bu ijodkorning eng kata yutuqlaridan biri desak yanglishmagan bo'lamiz. Masalan: "Bemor" hikoyasini oladigan bo'lsak matnda tilanchi nutqi ham kiritilib ketgan va ayni paytda u tojik tilida berilgan. Bizga ma'lumki, hozirgi kunda bizning xalq orasida "lo'li" deb ataluvchi millatning asosiy kasb-kori tilanchilik va ularning aksariyat qismi tojik tilida gaplashadi.

Yozuvchi ham aynan shu jihatlarga e'tibor bergan. "Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo..." Shuningdek, yozuvchining har bir hikoyasida iboralar qatnashgan. Bizga ma'lumki, ibora frazeologik birlik hisoblanib bildirayotgan fikrimizni bo'rtirib, ta'sirchanlikni oshirib ifodalashimiz uchun ishlatamiz. Ayni damda iboralar o'zbek tili lug'at tarkibini boyituvchi til birliklaridan biri hamdir. Biz ijodkor asarlarini o'qish jarayonida bir qancha iboralarga duch keldik. Keling ularni ko'rib chiqsak: Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi Shashti qaytdi- xafsalasi pir bo'ldi, kayfiyati buzildi, fikridan qaytdi. Xotin ovqatga unnadi, "reining boshqorong'i bo'l evid-da bo'l-da" degani unga juda alam qildi, xo'rliqi keldi, o'pkasi to'ldi (Anor). O'pkasi to'ldi-yig'lagisi kelmoq. Sherali bilan Shahriniso bir-birini yaxshi ko'rar edi.

Lekin ikkovi ham ochiqchasiga bir nima deyolgan emas (Sep). Yaxshi ko'rmoq-sevmoq.

O'rtoq Boqijon Boqoyevning ta'bi ochildi-sigir, uning qulog'idagi ko'm-ko'k kana, go'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan ketdi (Adabiyot muallimi) Ta'bi ochildi-kayfiyati ko'tarildi. To'xtabuvi yugurganicha Nazirabuvinikiga chiqdi. Nazirabuvi hali uxlamagn ekan. -Hoy, Nazirbuvi shu bo'ladigan ishmi yo raisning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib jo'natdikmi? (Kampirlar sim qoqdi) Qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirmoq-qo'lidan kelmasligi mumkin ishni qila olaman deb ishontirmoq. Abdulla Qahhor hikoyalarinig ta'sirchanligini ta'minlagan yana bir omillardan biri ijodkorning so'z tanlashda asar qahramonining yoshi, kasb korini ham hisobga olib so'z tanlagan. "Bemor" hikoyasida 4 yashar qizaloqning qilgan duosini ko'rsak: -Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin... Bizga ma'lumki yosh bolalarning ko'pchiligi talaffuz jarayonida "r" tovushini talaffuz qilishga qiynalishadi.

Yozuvchi bu jihatni o'z asar qahramoniga singdirib, bu vaziyatini kitobxon ko'z o'ngida gavdalanitira oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Abdulla Qahhor asar qahramonini qanday lavozimda ishlashiga qarab ham so'zlarni mohirlik bilan tanlagan. Sud jarayoni, surishtiruv ishlari rasmiy-idoraviy uslubda olib borilishi bizga ma'lum. "O'g'ri" hikoyasida ham ba'zi joylarda amaldorlar nutqi rasmiy-idoraviy uslubda bayon etilgan.

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi. -Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi? -Ola ho'kiz... -Yaxshi ho'kizmidi, yo yomon ho'kizmidi? -Qo'sh mahali... Yaxshi ho'kiz birov yetalasa keta beradimi? -Bisotimda hech narsa yo'q... -O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber deb qo'yilmagan ekanda !Nega yig'lanadi? A?

Yig'lanmasin! Bundan tashqari Abdulla QAhhor asarlarini ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan vositalarga so'z ma'nolarinig ko'chishi va o'xshatishlarni ham misol sifatida keltirsak bo'ladi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgiza olmadi.

Turobjon ikki kosa ichdi,xotin esa hanuz bir kosani yarimlata olmas edi.(“Anor”). Asrorqul erta bilan barvaqt turiub ketdi.Haydar otani “Tushga yaqin tegirmon boshiga chiqib borsin” deb kampirga tayinlabdi.(“Asror bobo”) -“J” ning kattasi qanday yozilar edi?Domlamiz bir kun so'ratgan edi, esimda qolmapti. San'atkorning jahli chiqdi: Endi “J” ga keldingizmi?Barjom deganda yoziladi.Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti,gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. (“San'atkor”) -Undoq bo'lsa, sen bizdan bitta qo'y bilan qutulmaysan,-dedi To'xtabuvi,-birinchi termini olib topshirgan kunimiz Toshkentga sim qoqasan, aytasanki... (“Kampirilar sim qoqdi”).

Samovarda o'tirgan edik, birpasdan keyin jonfig'on chiqdi va yonimizga kelib: Shu gap gap bo'ldimi yo tag'in jinniligi tutarmikin?-dedi.(“Jonfig'on”). Mish mish rost bo'lib chiqdi: domla bozor qilishni, magazinga kirishni jinidan battar yomon ko'rar edi, kimdir uni univermagda navbatda turganini ko'ribdi; ertasi-ga choyxona oldidan chammandagul do'ppi kiyib o'tdi (“To'yda aza”).

Abdulla Qahhor asarlarida kamdan-kam holatda maqolning sintaktik tuzilishini o'zgartirgan. Ya'ni, ega yoki kesimni shaxs va sonda o'zgartiradi. Bu o'zgartirishda maqol kimning tilidan kimga qarata aytilayotganini inobatga oladi. Abdulla Qahhor asarlarida maqollardan tashqari matallarni ham unumli ishlatadi. “Bemor” hikoyasidagi ko'ngilga armon bo'lmasin deb,chilyosin ham qildirishga to'g'ri keldi, “To'yda aza” hikoyasidagi:yaxshining yuzida zuluk ham xol bo'lib ko'rinadi, “Nurli cho'qqilar” hikoyasida: kesakdan o't chiqqaniga xursandligini izhor qilib; Fotima qari qiz bo'lib o'tirib qoladi; tappi tappidan yiroq tushmas ekan, “Mahalla” hikoyasida : mening bir oyog'im go'rda , sening ikki oyog'ing to'rdami?, “So'ngan vulqon” hikoyasida sendan ugina, mendan bugina; Isoning alamini, Musodan oladi; sizlaganni xushlab, senlaganni mushtlaydigan bo'lib qoldilar; o't kech desa, o't kechganman, suv kech desa, suv kechganman; “Dumli odamlar” hikoyasida: yo'lovchi har bir xurgan itning ortidan quvsa, manzilga qachon yetadi; bunga gap uqtirish, qorong'u uyga kesak otganday gap; “Ikki yorti bir butun” hikoyasida : eshakni yashirsang, hangrab sharmanda qiladi; “Yillar” hikoyasida: birovning

ishiga saratonda qo'l sovqotadi matallari asar ma'no mazmunini yanada yaqqol ochib berishga xizmat qiladi.

Xulos qilib aytganimizda O'zbek hikoyachiligi va romanchiligida o'ziga xos maktab yaratgan yozuvchi Abdulla Qahhor badiiy merosi dunyo adabiyotining an'anaviy va yangi yutuq va tajribalarini o'rganish, ijodiy o'zlashtirish, shu asosda milliy voqelikni yangicha uslub hamda ranglarda tasvirlash natijasida yuzaga kelgan. U Sharq va G'arb madaniy-estetik tajribalarini o'z badiiy olamida tabiiy va haqqoniy omuxtalashtira olgan yirik adib edi. Bu shoir qalam sohibining hikoya, qissa, roman, komediyalarida yigirmanchi asr o'zbek milliy hayoti jahon adabiyotining zamonaviy usul va tasvir prinsiplari asosida badiiy ifoda etilgan.

REFERENCES

1. Qahhor A. Asarlar. 5 jildlik, 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 333 b.
2. Qahhor A. Asarlar. 6 tomlik, 6-tom. – T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – 333 b.
3. Qahhor A. Asarlar. 6 tomlik. 2-tom. – T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – 147 b.
4. Qahhor Abdulla. Sinchalak. Asarlar. 5 jildlik, 3-jild. Qissalar. Nashrga tayyorlovchi K.Qahhorova. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – B.44-188.